

**XORIJIY TIL DARSLARINI TASHKIL ETISHDA  
ZAMONAVIY YONDASHUV**

*Ilmiy rahbar: NDPI xorijiy tillar  
fakulteti o`qituvchisi M.T. Gapparova  
4-kurs talabasi Y.Sh.Shahobiddinova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy va samarali metodlarning turlari hamda ularning tutgan o'рни va ahamiyati haqidada fikr yuritiladi. Shuningdik, zamonaviy metodlar orqali yangi tillarni til o'rganuvchilarning yaxshi o`zlashtirishida, o`sha tilda bemalol so`zlay olishida yordam bera olishi haqida ham ba'zi ma`lumotlar keltirib o`tiladi.

**Tayanch tushunchalar:** metodika, xorijiy tillar, STEAM, Blended learning, bilim,

**Abstract:** This article discusses the types of modern and effective methods and their role and importance in teaching foreign languages. At the same time, some information is provided about how modern methods can help language learners to learn new languages well and to be able to speak that language easily.

**Key words:** methodology, foreign languages, skills, STEAM, Blended learning, knowledge.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются виды современных и эффективных методов, их роль и значение в обучении иностранным языкам. В то же время предоставляется некоторая информация о том, как современные методы могут помочь изучающим язык хорошо изучать новые языки и легко говорить на этом языке.

**Ключевые слова:** методология, иностранные языки, STEAM, Blended learning, знания.

Mamlakatimiz mustaqilik deb atalmish buyuk ne'matga erishganidan buyon, demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida bormoqda. Albatta, bu yo'lda qat'iy davom etish uchun samarali chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, yurtimizda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish borasida xorijiy tillarni o'qitishning kompleks va innovatsion tizimi, ya'ni kasb salohiyatiga ega, o'qimishli, zamonaviy va erkin fikrlovchi yosh kadrlarni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan yangi tizim yaratildi. Xususan, shu yili xorijiy tillarni o'qitishning yanada takomillashtirish bo'yicha yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi bo'lib o'tgan videoselektor majlisida, har bir chet tili o'qituvchilarining milliy yoki

xalqaro sertifikatlarga ega bo'lish talablari qat'iy qo'yildi hamda amalda joriy etildi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchilarning salohiyati hamda bilimiga bo'lgan talablar, yosh avlodning yanada yaxshi, puxta bilim egallashi uchun qo'yilgan maqsadlardan biridir.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalangan holda darslarni tashkil etish davr talabiga aylanmoqda. O'zbekiston va boshqa yirik davlatlar o'rtasida yangi metodlar va muhitni o'rganish borasida shartnomalar tuzilib, amalda tadbiiq etilmoqda. Ta'lim jarayonini rivojlantirish va o'zgartirish, o'qituvchi va o'quvchilarning dars jarayonida o'zaro ochiq muloqotga kirisha olishiga bog'liqdir. Zamonaviy tamoyillar asosida rivojlanayotgan ta'lim tizimi -yosh avlodni barkamol, ma'naviy yetuk inson sifatida shakllantirishga qarata olgandir. Chet tillarini o'rgatishda metodikaning o'rni va ahamiyati kattadir. Xorijiy tillarni o'qitishdagi tarjima metodi bu an'anaviy metodlardan biri ya'ni ancha eski metod hisoblanadi. Chunki bu metodda faqatgina o'qib, tarjima qilinadi, yangi so'zlar yodlanadi. Afsuski, bu kabi an'anaviy metodlar bugungi globallashuv davrida o'zini oqlamayapti. Hozirda ommalashayotgan barcha beshta sohani yagona ta'lim integratsiyalashuviga asoslangan zamonaviy yangi tizimlardan biri bu – STEAM. Bu tizimning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, STEAM faqatgina nazariyani emas, balki uni amaliyotda sinab ko'rishni talab qiladi. Bu tizimning asosi kreativlik, boshqacha qilib aytganda, darslarga yangicha yondashishdir. **STEAM** aslida tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika degan ma'nolarni anglatadi hamda beshta sohani qamrab olgan holda dars o'tish demakdir. Nafaqat chet tillari darslarida, balki barcha fanlarda bu dasturdan foylangan holda tashkil etish mumkin. Buni birgina ingliz tili darslari misolida ko'radigan bo'lsak, tillarni o'qitish asosan lug'at o'rgatishdan boshlanishi tabiiydir. Boshlang'ich sinflarga, misol uchun uch yoki to'rtinchi sinf o'quvchilariga, oddiygina fold, draw, paint, cut va shunga o'xshash so'zlarni o'rgatish kerak bo'lsa, **STEAM** dan qanday foydalana olamiz ? Albatta, har bir o'qituvchining qanday yondashishiga bog'liq. Buni hozir oddiygina qog'ozdan gul yasash misolida ko'rib chiqamiz. Dars jarayoni iloji boricha ingliz tilida olib boriladi, o'quvchilarning boshlang'ich sinf ekanligini inobatga olsak, ba'zi jumlar ona tilida tushuntirilishi kerak.

- Bu yoshdagi o'quvchilarda, albatta, qog'oz, qalam, qaychi va yelim kabi narsalar doim yonlarida bo'lishi tabiiydir. Endi dars jarayonini sizlar bilan birga boshlaymiz.

- Har bir o'quvchidan yuqorida aytib o'tilgan o'quv qurollarini tayyorlab olishlari so'raladi, so'ngra qog'ozga birgalikda ayalana (circle) shakli chiziladi va shu yerda **draw** so'zini ham amaliy ham nazariy o'rgatiladi.

- Keyin esa xuddi shundek, aylana birgalikda bo'yaladi. Bo'yayotgan vaqtda o'quvchilar **paint** so'zini o'zlari uchun takrorlab oladilar.

•Endi aylanani kesib olishimiz kerak, bizga qaysi so'z kerak shaklida so'raladi, albatta **kesmoq** so'zi. Demak ingliz tilida kesmoq – cut degani. Hammamiz birgalikda aytib, aylanani kesib olamiz shaklida dars jarayoni davom ettiriladi.

•Kesib olingan aylanani ikkiga buklab olamiz, demak keyingi so'zimiz bukلامoq ekan. Fold in two – ikkiga bukلامoq, birga qaytaramiz hamda qog'ozni buklab olamiz deya dars jarayoni o'quvchilar bilan birga olib boriladi.

•O'quvchilar yozilishini o'rganishlari uchun ham har bir yangi so'z aytilganda albatta doskaga o'qituvchi tomonidan yozib boriladi, qolgan so'zlar ham shunday davom ettiriladi.

Shu tarzda gulni yasash jarayoni yangi so'zlarni yodlash orqali davom ettiriladi. Mana bu kabi kreativlik orqali bola so'zni ham nazariy ham amaliy tarzda yodlab qoladi. Hammamizga ma'lumki, amaliyotda sinab ko'rishning foydasi faqat nazariyadan foydalanishdan ko'ra ancha samaraliroqdir, xuddiki, ming marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rgan afzalroqdir degan iboraga to'g'ri keladi. Bu jarayonda albatta o'qituvchi butun bir sinf bilan ishlaydi, hamma o'quvchilarni jalb qiladi.

**Blended learning** ham STEAM dek yangi tizimdir. Bu tizimni yana aralash ta'lim deb ham atasak bo'ladi, aralash ta'lim online hamda an'anaviy talimning o'zaro aralashgan holati hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanayotgan bir paytta online hamda an'anaviy ta'limning aralashuvi tobora dolzarb sohalardan biriga aylangan. Aralash ta'lim o'quvchi va talabalarda o'z faoliyatini tashkil qilishda yordam beradi va anchagina vaqtni tejaydi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida sanab o'tilgan metodlarning barchasi o'ziga xos. O'qitish jarayonida bu metodlardan foydalanib turlicha natijalarga erishish mumkin, demak, har bir metod o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi.

### **FOYDALANILGAN SAYTLAR:**

1. [https://dzen.ru/a/X-UUPbWQzx1kK\\_ED](https://dzen.ru/a/X-UUPbWQzx1kK_ED). KOSMOS IT MAKTABI. STEAM ta'lim tizimi nima?